O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

KRIMINOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

TOSHKENT – 2026

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti kengashining yig‘ilishida (2026 йил 28-сентябрдаги 10-сонли баённома) muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan

Mas’ul muharrir
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), **B.E. Berdialiyev.**

Taqrizchilar:
siyosiy fanlar doktori, professor **I. Ergashev;**
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent **D.Yu.Payziyev.**

Nashrga tayyorlovchilar:
falsafa doktori (PhD), professor **R.O. Nigmatov**; filologiya fanlar nomzodi **B.A. Yarov;** tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **I.E. To‘raev**; falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent **Sh.Sh. Hasanov**; yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **U.A. Irisbekov; D.B.Mamarajabova.**

Kriminologiyaning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami (2026-yil 25-sentyabr). – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026. – 313 b.

Mazkur to‘plamda Kriminologiyaning dolzarb masalalari, jinoyatchilikning zamonaviy tendensiyalari, uning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, jinoyatchilikning oldini olish hamda profilaktika tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Unda jinoyatchilikning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari, uning hududiy va ijtimoiy xususiyatlari, zamonaviy kriminogen omillar, jinoyat sodir etuvchi shaxsning kriminologik tavsifi, viktimologik jarayonlar, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uni barvaqt profilaktika qilishning samarali mexanizmlari tahlil qilingan.

Shuningdek, to‘plamda raqamlashtirish, sun’iy intellekt, kiberjinoyatchilik, uyushgan va transmilliy jinoyatchilik, yoshlar va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, oilaviy-maishiy nizolar, zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlar kabi zamonaviy kriminologik muammolarga alohida e’tibor qaratilgan. Mavjud muammolarni bartaraf etish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va milliy amaliyotga joriy etish, kriminologik prognozlash va ilmiy asoslangan profilaktika choralarini ishlab chiqish yuzasidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

To‘plam huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, olimlar, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, talabalar va kursantlar, shuningdek, kriminologiya, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

© O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026-y.

INTERNET TARMOG‘IDA GIYOHVANDLIK VOSITALARINING NOQONUNIY MUOMALASIGA QARShI KURASHISHNING ZAMONAVIY USULLARI

To‘raev Ilhomjon Esanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi, t.f.b.f.d. PhD

Annotatsiya: Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida keng tarqalgan global muammolardan biri – giyohvand moddalarning internet tarmoqlari orqali noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning **zamonaviy usullari** tadqiq etildi. Maqolada onlayn narkotrafikka qarshi kurashda qo‘llanilayotgan **raqamli monitoring tizimlari, sun’iy intellektga asoslangan aniqlash texnologiyalari, “darknet” va kriptovalyuta operatsiyalarini kuzatish usullari**, shuningdek xalqaro hamkorlik mexanizmlari (jumladan, UNODC ning Early Warning Advisory tizimi) tahlil qilingan. Shu bilan birga, internet-dorixonalar va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan psixotrop moddalarga qarshi kurashish borasidagi milliy tajriba ko‘rib chiqilgan. Maqola yakunida axborot xavfsizligini ta’minlash, qonunchilikni takomillashtirish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish orqali noqonuniy muomalani cheklashning amaliy usullari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik vositalari, internetda noqonuniy muomala, raqamli monitoring, sun’iy intellekt, darknet, kriptovalyuta, xalqaro hamkorlik, axborot xavfsizligi.

Аннотация: В статье исследуются **современные методы противодействия незаконному обороту наркотических средств через интернет** – одну из глобальных проблем, обострившихся в результате стремительного развития информационно-коммуникационных технологий. Рассмотрены **цифровые системы мониторинга, технологии выявления на основе искусственного интеллекта, методы отслеживания операций в «даркнете» и с использованием криптовалют**, а также механизмы международного сотрудничества, включая систему раннего предупреждения UNODC (Early Warning Advisory). Наряду с этим изучен национальный опыт противодействия распространению психотропных веществ через интернет-аптеки и социальные сети. В заключение разработаны практические предложения по ограничению незаконного оборота путем обеспечения информационной безопасности, совершенствования законодательства и повышения правовой культуры граждан.

Ключевые слова: наркотические средства, незаконный оборот в интернете, цифровой мониторинг, искусственный интеллект, даркнет, криптовалюта, международное сотрудничество, информационная безопасность.

Annotation: The article examines **modern methods of combating the illegal trafficking of narcotic substances through the internet** – one of the global problems intensified by the rapid development of information and communication technologies.

It analyzes **digital monitoring systems, artificial intelligence-based detection technologies, methods for tracking darknet and cryptocurrency transactions**, as well as international cooperation mechanisms, including the UNODC Early Warning Advisory system. Alongside this, national experience in countering the distribution of psychotropic substances through online pharmacies and social networks is reviewed. The article concludes with practical proposals to limit illegal trafficking by ensuring information security, improving legislation, and raising the legal culture of citizens.

Key words: narcotic drugs, illegal online trafficking, digital monitoring, artificial intelligence, darknet, cryptocurrency, international cooperation, information security.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyat hayotining barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ma’lumot almashish, muloqot qilish va turli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayishi bilan bir qatorda, global miqyosda xavfli oqibatlarga olib kelayotgan salbiy holatlar ham yuzaga kelmoqda. Shular qatorida giyohvandlik vositalarining onlayn savdosi jamoat xavfsizligi, ayniqsa yoshlar salomatligi uchun jiddiy tahdidga aylanmoqda. Ushbu tahdidning doimiy ravishda shakl almashtirib borishi – ya’ni, jinoyatchilarning tobora yangi texnologik vositalardan foydalanishi – unga qarshi kurashda ham mutanosib ravishda **zamonaviy, raqamli va ilmiy asoslangan usullarni** joriy etishni taqozo etadi. Shu bois, mazkur muammoga qarshi samarali kurashishda xalqaro tashkilotlar, davlat idoralari, huquqni muhofaza organlari va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan qo‘llanilayotgan zamonaviy usullarni o‘rganish va takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

“Giyohvandlik vositalari savdogarlari o‘z mahsulotini sotishda ilg‘or raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, turli xil platformalardan foydalanishlari dunyo miqyosida giyohvand moddalar iste’molini rag‘batlantirmoqda” deyiladi BMTning Giyohvand moddalar nazorati bo‘yicha Xalqaro qo‘mitasi (International Narcotics Control Board – INCB)ning 2024-yil e’lon qilingan hisobotida [1].

Ko‘plab o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, internet tarmog‘i orqali narkotrafikka qarshi kurashish bugungi kunda kompaniyalar tomonidan zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mashhur onlayn platformalarda olib borishini tavsiya etmoqda. Negaki bunday turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda ularni aniqlashdan ko‘ra ularga jamoatchilik tashkilotlari orqali ta’sir o‘tkazish ancha osonroq usul sifatida namoyon bo‘lmoqda.

“Biz ko‘ryapmizki, giyohvand moddalar noqonuniy aylanmasi faqat “darknet”da amalga oshirilmaydi. Achinarlisi, jinoyatchilar so‘ngi 10 yillikda qonuniy elektron tijorat platformalaridan ham faol tarzda foydalanmoqda”, – dedi BMTning MKKN *(INCB)* qo‘mitasi vitse prezidenti Jalal Tufik [2].

Mazkur sohaning rivojlanishining tezligi shundaki, ijtimoiy tarmoqlar giyohvand moddalar sotuvchilariga masofadan turib butun dunyo iste’molchilariga chiqish imkonini beradi. Internetda giyohvand moddalar savdosi bilan bog‘liq tendensiyalar hozirda muloqot va tranzaksiyalarda shifrlash usullaridan foydalanish, *“darknet”*da anonim ko‘rish hamda qiyin izlanadigan kriptovalyutalar orqali to‘lovlardan iboratdir. Hisobotda aytilishicha, jinoyatchilar o‘z faoliyatlarini huquqni muhofaza qilish tizimlari imkoniyatlari kamroq yoki cheklangan hududlariga ko‘chirib, ko‘pincha

ekstraditsiyadan qochish mumkin bo‘lgan mamlakatlarni tanlaydi[1]. Demak, jinoyatchilar tomonidan qo‘llanilayotgan mazkur usullarga nisbatan ham texnik jihatdan teng kuchga ega bo‘lgan zamonaviy kuzatuv va aniqlash usullarini ishlab chiqish zarur.

World health organization tashkiloti mutaxassislari internetda fentanil va boshqa sun’iy opioidlarning mavjudligi bilan bog‘liq o‘limga olib keluvchi ortiqcha doza xavfi ortganini haqida shunday deydi:

“Internet orqali tarqatilayotgan fentanil va uning analoglari ko‘pincha “kaptagon”, “ekstazlar” yoki boshqa nom bilan yashirib sotiladi. Aslida esa ularning tarkibi aniq bo‘lmaganligi uchun iste’molchilar dozani nazorat qilolmaydi. Bu esa ortiqcha doza (overdose)da iste’mol qilishga va so‘ngida o‘limlar sonining keskin ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda” [3].

Zamonaviy raqamli texnologiyalar inson hayotining turli sohalariga chuqur kirib borishi bilan bir qatorda, sog‘liqni saqlash tizimida ham yangi tendensiyalarni ya’ni, telemeditsina va internet-dorixonalar faoliyatini shakllantirdi. Bu xizmatlar tibbiy ko‘makka kirish imkoniyatlarini kengaytirishi, dori vositalarini shifokor tashxisi asosida taqsimlash va ularni bemorlarga yetkazib berish jarayonini soddalashtirishi mumkin bo‘lsada, ammo mazkur jarayon bilan bog‘liq salbiy holatlar ham mavjud. Retseptsiz dori vositalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’molchilarga taklif qilayotgan noqonuniy internet-do‘konlar aholi salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Statistik ma’lumotlar, bugungi kunda dunyoda noqonuniy farmasevtik preparatlar savdosining umumiy hajmi 4,4 milliard AQSh dollariga yetganini ko‘rsatmoqda va bu jarayonlar mazkur muammoning ko‘lamini yaqqol namoyon etadi.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 12–15 yoshdagi bolalarning 25 foizidan ortiq qismi giyohvand moddalarni *(psixoaktiv yoki sintetik)* sinab ko‘rgan yoki iste’mol qilish tajribasiga ega[4]. Ayrim mamlakatlarda o‘g‘il bolalarning 56 foizi va qizlarning 20 foizi hech bo‘lmaganda bir marta giyohvand yoki mast qiluvchi vositalarni sinab ko‘rgan, shuningdek, 45 foiz o‘qil bolalar va 18 foiz qizlar ularni muntazam iste’mol qilib kelmoqda[5].

Ushbu global tahdid sharoitida mamlakatimizda ham profilaktik chora-tadbirlar doirasida jamoatchilik ishtirokidagi muhokamalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi hamda “Yuksalish” umummilliy harakati hamkorligida “Yoshlar va o‘smirlar orasida giyohvand moddalar hamda psixotrop vositalarni iste’mol qilishning oldini olish masalalari” yuzasidan jamoatchilik eshituvlari tashkil etildi. Mazkur eshituvlarda dolzarb muammo sifatida o‘smirlarning giyohvand moddalarga moyilligi, ularning noqonuniy aylanishi hamda yoshlarni bunday illatlarga jalb etish holatlari atroflicha muhokama qilindi. Shuningdek, ushbu holatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalari keng ko‘rib chiqildi[6].

Manbalarga ko‘ra, respublikamizda asosan “Tropikamid”, “Pregabalin” (“Lirika”, “Regapen”, “Lipre”), “Zaleplon” (“Selofen”) kabi kuchli ta’sir qiluvchi dorilar hamda “Tramadol” giyohvand vositasining sotilishi hamda iste’mol qilinishi bilan bog‘liq holatlar qayd etilgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda onlayn savdoning rivojlanishi bilan raqamli bozor kengayib, ayni paytda giyohvand vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarning noqonuniy savdosi ko‘chalardan, ta’lim muassasalaridan va dorixonalardan ijtimoiy tarmoqlarga ko‘chib o‘tdi. Natijada, an’anaviy huquqni muhofaza qilish usullari – jismoniy nazorat, reydlar va patrullash – bunday jinoyatlarning raqamli muhitdagi shakllarini aniqlashda yetarli samara bermay qolmoqda. Shu sababli ham, internet-maydonchalardagi noqonuniy savdoga qarshi kurashish uchun maxsus **raqamli usullar – kontent monitoringi, kalit so‘zlar bo‘yicha avtomatlashtirilgan qidiruv, sun’iy intellekt asosidagi tahlil tizimlari va platformalar bilan hamkorlik mexanizmlarini** joriy etish zaruratga aylanmoqda.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, mamlakatimizda psixotrop vositalar va prekursorlarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish va namoyish etish taqiqlanadi. Ammo bugungi kunda biz bunday ma’lumotlarga internetda deyarli har kuni duch kelmoqdamiz. Afsuski, o‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday turdagi taqiqlangan axborotlarning tarqalishi yil sayin ortib bormoqda – bu esa **monitoring va aniqlash usullarining hozirgi darajasi** yetarli emasligidan dalolat beradi. Tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda giyohvand moddalar savdosi bo‘yicha monitoring ishlari amalga oshirilganda birgina 2024 yilda Telegram, Instagram, Facebook, Whatsapp ijtimoiy tarmoqlarida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni reklama qilish va tarqatish bilan bog‘liq holatlar soni 18 393 taga yetganligini ko‘rsatdi.

Shu jihati qiziqki, jamiyatimizdagi fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatining oshishi keng jamoatchilikning bugungi kunda mazkur muammoga befarq emasligini ko‘rsatmoqda va bu, o‘z navbatida, **fuqarolik ishtirokiga asoslangan monitoring usulining** samarali namunasini tashkil etadi. Xususan, 2024-yilda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda telegram messenjerida yaratilgan **«@stopnarko_bot»** dasturiy vositasiga fuqarolar tomonidan jami **2 484 ta foto, 128 ta video, 54 ta fayl, 4 ta audio, 829 ta havola, 17 ta ovozli va 13 ta gif** materiallari qonunga xilof ravishda tarqatilganligi haqida ma’lumotlar yuborilgan[7]. Mazkur bot ko‘rinishidagi elektron murojaat tizimi – aholi ishtirokida noqonuniy kontentni aniqlashning arzon va tezkor usuli sifatida baholanishi mumkin.

O‘z navbatida, ichki ishlar organlari mazkur holatlar bo‘yicha aniqlangan faktlarni qonun doirasida ko‘rib chiqib, aybdorlarni ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortmoqda. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi esa ijtimoiy tarmoqlar administratorlari bilan birgalikda internet-maydonchalar va sahifalar orqali noqonuniy kontent tarqalishini cheklash bo‘yicha choralar ko‘rmoqda. Bunday **institutsional hamkorlik usuli** – ya’ni, huquqni muhofaza qilish organlari, axborot agentliklari va xususiy platformalar o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan faoliyat – noqonuniy kontentni aniqlash va yo‘qotish jarayonini ancha tezlashtiradi.

Yuqorida keltirilgan raqamlar bu yo‘nalishda **usullarni yanada takomillashtirish va kengaytirish** zarurligidan dalolat beradi. Buning uchun, eng avvalo, huquqiy bazani mustahkamlash va yangi normativ-huquqiy hujjat qabul qilish lozim. Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2018-yil 5-sentabrda “Butunjahon Internet tarmog‘ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-707-son qarori[8] qabul qilinganligi 7 yillik davr mobaynida Internet va ijtimoiy tarmoqlar, raqamlashtirish, axborot xavfsizligini ta’minlash, axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza qilish sohasining sezilarli darajada rivojlanishiga xizmat qildi. Lekin bugungi kunda aksariyat internet tarmoqlari, xususan telegram messenjeri orqali aylanayotgan materiallarning aniq bir **avtomatlashtirilgan monitoring usuli** mavjud emas. Shu sababli ham, qonunchilikka tegishli o‘zgartirishlar kiritish va texnik monitoring usullarini joriy etish dolzarb zaruratga aylanib bormoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatish bilan bir qatorda, yangi xavf va tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali noqonuniy ravishda tarqatilayotgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar hamda ularning analoglari aholi, ayniqsa yoshlar salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shu munosabat bilan, ushbu tahdidga qarshi kurashish an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmasligi, balki **raqamli monitoring, sun’iy intellekt asosidagi aniqlash tizimlari, xalqaro hamkorlik mexanizmlari va profilaktik-tarbiyaviy chora-tadbirlarni** o‘zida mujassam etgan kompleks, zamonaviy usullar majmuasiga asoslanishi lozimligi ayon bo‘lmoqda. Shu bois, mazkur usullarni tizimli ravishda joriy etish va takomillashtirish jamiyat xavfsizligi uchun strategik ahamiyatga egadir.

Yuqorida ko‘tarilgan muammolardan kelib chiqib, internet tarmog‘ida giyohvand moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning quyidagi zamonaviy usullarini taklif etish mumkin:

Birinchi usul – **huquqiy bazani takomillashtirish**, ya’ni zamonaviy raqamli texnologiyalar sharoitida noqonuniy savdoni aniqlash hamda uning oldini olishga qaratilgan alohida qonunchilik hujjatlarini qabul qilish;

Ikkinchi usul – axborot xavfsizligini ta’minlash maqsadida, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda tarqatilayotgan noqonuniy kontentni **sun’iy intellekt va kalit so‘zlar tahlili asosida avtomatlashtirilgan tartibda monitoring qilish** imkonini beradigan milliy axborot tizimini yaratish; internet-platformalar administratorlari bilan hamkorlikda bunday materiallarni o‘z vaqtida aniqlash va ularning tarqalishini cheklash bo‘yicha qisqa metrajli milliy kontentlarni tayyorlash;

Uchinchi usul – profilaktik-tarbiyaviy chora-tadbirlarni ko‘paytirish orqali aholi, ayniqsa yoshlar va o‘smirlar orasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish; giyohvand moddalarning salbiy oqibatlarini tushuntirishga qaratilgan targ‘ibot dasturlarini kengaytirish, ta’lim muassasalarida huquqiy madaniyat va axborot xavfsizligi masalalari bo‘yicha majburiy o‘quv kurslarini joriy etish yosh avlodni zararli illatlardan himoya qilishda dolzarb ahamiyatga ega.

To‘rtinchi usul – UNODC ning **Early Warning Advisory** (EWA) tizimini O‘zbekistonda **joriy qilish**, bu yangi turdagi narkotik moddalar haqida **global ogohlantirishlarni olish** imkonini beradi.

Mazkur tizim yangi psixoaktiv moddalar (NPS), sintetik narkotiklar va ularning prekursorlarining paydo bo‘lishi, tarqalishi va xavf-xatarlarini erta aniqlash va ularga

qarshi choralar ko‘rishni tezlashtirishga xizmat qiluvchi **global monitoring platformasi** bo‘lib, BMTning Giyohvandlik moddalari va jinoyatchilikka qarshi kurashish idorasi tomonidan jahon miqyosida narkotik moddalar bilan bog‘liq **yangi tendensiyalarni kuzatish**, davlatlar va xalqaro tashkilotlarga ma’lumot taqdim etish orqali ularning **g‘ayriqonuniy muomalasining oldini olish** xizmat qiladi.

Beshinchi usul – telemeditsina va internet-dorixonalarning faoliyatini normativ-huquqiy jihatdan qat’iy tartibga solish. Xususan, shifokor retsepti asosida dori vositalarini taqdim etadigan litsenziyali onlayn-dorixonalar faoliyatini tartibga solish bilan bir qatorda, retseptsiz psixotrop vositalarni noqonuniy ravishda sotuvchi internet-do‘konlarga nisbatan qat’iy javobgarlik choralarini belgilash aholi salomatligini muhofaza qilishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Report 2024 – Embargo Observe release date: Not to be published or broadcast before 4 March 2025, at 1100 hours (CET) CAUTION // https://www.incb.org/incb/en/news/press-releases/2024/the-role-of-the-internet-in-drug-trafficking-and-drug-use-is-highlighted-in-the-international-narcotics-control-board-annual-report.html
2. International Narcotics Control Board // Monitoring and supporting Governments' compliance with the international drug control treaties - https://www.incb.org/
3. World health organization Opioid Overdose Fact Sheet - 29 August 2025 // https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/opioid-overdose
4. United Nations office on drugs and crime “Drugs and age – Drugs and associated issues among young people and older people” journal / World drug report // 2024
5. United Nations office on drugs and crime “Executive Summary” journal Vienna / World drug report // 2023
6. O‘zbekiston respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining kengaytirilgan yalpi majlisi // 2024-yil
7. Социальные сети как угроза: как цифровые платформы становятся рассадником наркотиков // Маъмуржон Парпиев, статья – https: //upl.uz/ misli/ 50716-news.html
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi “Butunjahon Internet tarmog‘ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori – https://lex.uz/ru/docs/3893082

MUNDARIJA

Kirish so‘zi.....**3**

1. Нигматов Руфтулло Олимджонович – “Основные характеристики британской модели предупреждения преступности”.....**5**

2. Матчанов Алимжан Атабаевич – “Кибержиноятчиликни криминологик прогнозлаш ва унинг олдини олишда ички ишлар органлари фаолиятини такомиллаштириш”.....**12**

3. Xudoyberdiyev Ahror Qosimaliyevich – “O‘zbekistonda huquqbuzarliklarning oldini olishda aholi huquqiy ongi va madaniyatini oshirish istiqbollari”.....**17**

4. Хужакулов Сиёвуш Бахтиёрович – “Криминологик диагностика ва прогнозлашда рақамли технологиялардан фойдаланиш”.....**20**

5. Сирлиев Бахтиёр Назарович – “Криминологические и психологические основания подготовки кадров органов внутренних дел: практическая модель предупреждения служебной делинквентности”.....**27**

6. Ummatov Muhammadrasul Tursunovich – “O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va uning qonunchilik tizimidagi o‘rni”.....**32**

7. Musayev Djamaliddin Kamalovich – “Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishda xalqaro-huquqiy hamkorlik”.....**37**

8. Пайзиев Дилшат Юлдашбаевич – “Навоий вилоятида жиноятчилик тенденциялари ва криминоген вазиятнинг ўзига хос хусусиятлари”.....**43**

9. Hasanov Sharofiddin Shamshurovich – “Raqamli makonda kiberjinoyatchilik: kriminologik tahlil va profilaktikaning zamonaviy mexanizmlari”.....**48**

10. Umirzakov Begzod Ataboevich – “Kriminologik bilimlarni huquqni muhofaza qilish faoliyatiga joriy etish: muammolar va samaradorlikni oshirish yo‘llari”.....**54**

11. Saitqulov Qodirali Abdisalimovich – “Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning kriminologik tavsifi va oldini olishning zamonaviy mexanizmlari”.....**59**

12. Abdullayev Sardorbek Usmonxudjayevich – “Kriminogen xulq-atvor profilaktikasida psixologik diagnostika va individual ta’sir mexanizmlarining integratsiyasi” **64**

13. Ирисбеков Улуғбек Асқарбекович – “Уюшган жиноятчиликнинг замонавий криминологик тавсифи ва унга қарши курашишнинг самарали механизмлари” **70**

14. To‘raev Ilhomjon Esanovich – “Internet tarmog‘ida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning zamonaviy usullari” **78**

15. To‘xtashev Hikmatilla Ismatillayevich – “Ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishda ruxsat berish va litsenziyalash mexanizmlarining kriminologik ahamiyati” **84**

16. Исаев Сардор Алишерович – “Ишсизлар томонидан содир этиладиган жиноятларнинг криминологик тавсифи ва профилактикаси”.....**95**

17. Aslanov Bobur Tuxtayevich – “Uyushgan jinoyatchilik latentligini aniqlashning zamonaviy kriminologik yondoshuvlari va uni milliy tizimga joriy etish”.....**108**